

Abdulaxatov Akramjon
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
dotsenti, (PhD)

KURASH MUTAXASSISLARIDA MILLIY AN'ANALARNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada kurash sohasida faoliyat yuritishga tayyorlanayotgan mutaxassislarining kasbiy va ma'naviy kamolotida milliy an'analar hamda urf-odatlarining o'rnini ilmiy jihatdan asoslanadi. Muallif tomonidan mazkur jarayonni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar, yondashuvlar va amaliy usullar qayta ishlab chiqilgan hamda tizimlashtirilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, kurash, tarbiya, pedagogik yondashuv, ma'naviy rivojlanish, sport ta'limi, sport turi, yoshlar, jismoniy barkamollik, ma'naviy yetuklik.

SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL BASES OF FORMING NATIONAL TRADITIONS IN KURASH SPECIALISTS

Abstract. This article scientifically substantiates the role of national traditions and customs in the professional and spiritual development of specialists preparing to work in the field of wrestling. The author has redeveloped and systematized pedagogical mechanisms, approaches and practical methods that serve to effectively organize this process.

Keywords: national values, wrestling, education, pedagogical approach, spiritual development, sports education, sport, youth, physical fitness, spiritual maturity.

НАУЧНЫЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ У СПЕЦИАЛИСТОВ ПО КУРАШСКОМУ ИСКУССТВУ

Аннотация. В данной статье научно обосновывается роль национальных традиций и обычаев в профессиональном и духовном развитии специалистов, готовящихся к работе в области борьбы. Автор переработал и систематизировал педагогические механизмы, подходы и практические методы, служащие эффективной организации этого процесса.

Ключевые слова: национальные ценности, борьба, воспитание, педагогический подход, духовное развитие, спортивное образование, спорт, молодежь, физическая подготовка, духовная зрелость.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida yoshlarni faqatgina kasbiy bilimlar bilan ta'minlash yetarli hisoblanmaydi. Ularni milliy ruhda tarbiyalash, madaniy merosga hurmat ruhini shakllantirish ham ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kurash sport turi orqali yoshlarda nafaqat jismoniy barkamollik, balki ma'naviy yetuklikni ham qaror toptirish imkoniyati mavjud.

Kurash-bu nafaqat jismoniy mashqlar tizimi, balki muayyan axloqiy me'yorlar, urf-odatlar va qadriyatlarni o'zida mujassam etgan ijtimoiy-pedagogik fenomendir. Shu bois, ushbu sohadagi mutaxassislarni tayyorlashda milliy an'analarni o'quv-tarbiya jarayoniga maqsadli ravishda kiritish talab etiladi.

Milliy an'analar va urf-odatlar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan ijtimoiy-madaniy tajribaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular muayyan xalqning hayot

tarzi, dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va qadriyatlar tizimini o'zida mujassam etadi. Shu jihatdan qaraganda, milliy an'analar shaxs tarbiyasida nafaqat madaniy, balki pedagogik ahamiyatga ham egadir.

Pedagogika nazariyasida milliy qadriyatlar shaxs kamolotining muhim omili sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, balki tarbiyaviy vazifalarni ham qamrab olishi lozim. Ayniqsa, sport ta'limi tizimida bu masala yanada dolzarb tus oladi, chunki sport faoliyati shaxsning irodaviy, axloqiy va ijtimoiy sifatlarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Kurash milliy sport turi sifatida nafaqat jismoniy rivojlanishni ta'minlaydi, balki ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ham muhim mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Unda mujassam bo'lgan halollik, raqibga hurmat, sabr-toqat, jasorat kabi fazilatlar milliy an'analar bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois, kurashni o'qitish jarayonida mazkur qadriyatlarni maqsadli ravishda shakllantirish nazariy jihatdan asoslangan bo'lishi talab etiladi.

Mazkur muammoning nazariy yechimi bir nechta pedagogik konsepsiyalar asosida shakllantiriladi. Jumladan, madaniy-tarixiy yondashuvga ko'ra, shaxs rivojlanishi uni o'rab turgan ijtimoiy va madaniy muhit bilan bevosita bog'liq. Demak, ta'lim jarayonida milliy an'analardan foydalanish talabalarning ma'naviy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga muvofiq, shaxs faqat faol ishtirok orqali bilim va ko'nikmalarni samarali o'zlashtiradi. Kurash mashg'ulotlari esa amaliy faoliyatga asoslanganligi sababli, milliy urf-odatlarini tabiiy ravishda singdirish imkonini yaratadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi esa har bir talabaning individual xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Bu esa milliy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi, chunki har bir shaxs ularni turlicha qabul qiladi va anglaydi.

Milliy an'analar jamiyat taraqqiyoti davomida shakllangan va avloddan avlodga o'tib kelayotgan ijtimoiy tajribani ifodalaydi. Ular shaxsning ma'naviy qiyofasini belgilashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogika nuqtai nazaridan qaralganda, an'analar:

- tarbiyaviy ta'sir vositasi;
- ijtimoiylashuv mexanizmi;
- axloqiy me'yorlarni shakllantiruvchi omil sifatida xizmat qiladi.

Kurash ta'limida ushbu omillarning uyg'unligi talabalarda quyidagi sifatlarni rivojlantiradi:

mas'uliyat va intizom		
jamoada ishlash ko'nikmalari	raqibga nisbatan hurmat	halol kurashish tamoyili

Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanildi:

- ilmiy adabiyotlarni qayta tahlil qilish;
- kuzatuv va taqqoslash;
- pedagogik tajribalarni umumlashtirish;
- tizimli yondashuv asosida tahlil.

Ushbu metodlar orqali kurash ta'limida milliy an'analarni singdirishning samarali modelini ishlab chiqish imkonini yaratildi.

Kurash ta'limi tizimida nazariy bilimlar bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashning ajralmas qismi hisoblanadi. Amaliy ko'nikmalar kurashni egallashda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, nazariy bilimlar ushbu ko'nikmalarni ongli, tizimli va samarali qo'llash imkonini yaratadi.

Kurash sohasidagi nazariy bilimlar bir qator tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, kurashning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi, uning falsafiy va axloqiy asoslari, musobaqa qoidalari, atamashunoslik, shuningdek, mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi shular jumlasidandir. Ushbu bilimlar talabalarning kasbiy tafakkurini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Birinchidan, kurash tarixi va uning milliy merosdagi o'rnini anglash talabalarda milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantiradi. Bu esa ularning ma'naviy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda, nazariy ta'lim faqat axborot berish emas, balki tarbiyaviy vazifani ham bajaradi.

Ikkinchidan, musobaqa qoidalari va me'yorlarini chuqur o'zlashtirish kurashchilarda intizom, adolat va mas'uliyat kabi sifatlarni rivojlantiradi. Qoidalarni bilish orqali bo'lajak mutaxassislar texnik harakatlarni to'g'ri baholash, xatolarni aniqlash va sport etikasiga rioya qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Uchinchidan, nazariy tayyorgarlik mashg'ulotlarni rejalashtirish va tashkil etish bilan bog'liq bilimlarni ham qamrab oladi. Jumladan, yuklamani to'g'ri taqsimlash, mashg'ulotlar davriyligi, tiklanish jarayonlari va jarohatlarning oldini olish kabi masalalar muhim ahamiyatga ega. Bu bilimlar ayniqsa murabbiylik faoliyatida zarur hisoblanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligi muhim hisoblanadi. Pedagogika, falsafa va psixologiya sohalarida katta hissa qo'shgan **John Dewey** (AQSh) ta'kidlaganidek, ta'lim jarayoni tajriba bilan bog'langan holda samarali kechadi. Shu sababli, kurash ta'limida nazariy bilimlar amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'un holda berilishi lozim.

Shuningdek, ta'limda ijtimoiy muhit va muloqotning o'rnini juda muhim ekanini ilmiy jihatdan asoslab bergan **Lev Vygotsky**ning ta'lim haqidagi qarashlariga ko'ra, bilimlar ijtimoiy muhit va o'qitish jarayoni orqali shakllanadi. Bu esa nazariy mashg'ulotlarda muloqot, tahlil va fikr almashish orqali talabalarning tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi.

Nazariy bilimlar bo'lajak kurash mutaxassislarida quyidagi kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi texnik va taktik harakatlarni tahlil qilish;

texnik va taktik harakatlarni tahlil qilish

mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish

sportchilar faoliyatini baholash

samarali pedagogik usullarni qo'llash

Zamonaviy ta'lim sharoitida nazariy mashg'ulotlarni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Multimedia vositalari, interaktiv darslar va muammoli ta'lim usullari talabalarning qiziqishini oshiradi va bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi.

Kurash ta'limida nazariy bilimlar va amaliy mashg'ulotlarni bir-biri bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega. Masalan, milliy kurash tarixi haqidagi ma'lumotlar mashg'ulot jarayonida amaliy misollar bilan boyitiladi.

Talabalarga milliy qadriyatlarni faqat nazariy emas, balki amaliy faoliyat orqali yetkazish samarali hisoblanadi. Bu esa ularning ichki ishonch va qadriyatlar tizimini shakllantiradi.

Har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish orqali ta'lim jarayoni samaradorligi oshiriladi.

Milliy an'analarni singdirish quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:



Таълим мазмунини бойитиш-ўқув дастурларига миллий кадрятлар билан боғлиқ мавзуларни киритиш.

Тарбия жараёнини фаоллаштириш-маънавий-маърифий тадбирларни ташкил этиш.

Анъанавий муносабатларни тиклаш-устоз-шогирд тизимини ривожлантириш.

Маданий муҳит яратиш-спорт муассасаларида миллий руҳни кучайтириш.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy an'analarni maqsadli ravishda ta'lim jarayoniga kiritish quyidagi ijobiy natijalarni ta'minlaydi:

- talabalarning ma'naviy dunyosi boyiydi;
- kasbiy faoliyatga mas'uliyatli yondashuv shakllanadi;
- milliy o'zlikni anglash darajasi oshadi.

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham kuzatiladi. Jumladan, ayrim hollarda an'analarni zamonaviy ta'lim talablari bilan uyg'unlashtirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu esa pedagoglardan yuqori darajadagi metodik mahoratni talab qiladi.

Xulosa: Kurash mutaxassislarini tayyorlash jarayonida milliy an'analar va urf-odatlarini singdirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Bu jarayon tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Samarali tashkil etilgan ta'lim jarayoni nafaqat malakali mutaxassis, balki ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Usmonov B. Pedagogika nazariyasi.-Toshkent: Fan, 2019.
2. Vygotskiy L.S. Mind in Society: The development of higher psychological processes.- Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Dyui J. Experience and Education.-New York: Macmillan.
4. Abdullaev A. Jismoniy tarbiyada milliy qadriyatlar.Sport jurnali.-2020. №2.S. 40-47.
- 5.Xo'jaev N. Kurash o'qitish metodikasi. Ilmiy sport jurnali. 2021.№1.S. 25-31.